

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Abdulaxatova Shohsanam Adhamjon qizi

University of Business and Science

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-texnologik asoslari yoritilgan. Kreativ fikrlash tushunchasining mazmun-mohiyati, uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar va samarali o'qitish texnologiyalarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ fikrlash, kreativlik, pedagogik texnologiya, innovatsion ta'lim, interfaol metodlar, kasbiy kompetensiya.

TECHNOLOGY FOR THE FORMATION OF CREATIVE THINKING SKILLS OF FUTURE TEACHERS

Annotation. This article examines the pedagogical and technological foundations for developing creative thinking skills in future teachers. In the course of the research, the essence and content of the concept of creative thinking, its significance in the educational process, as well as the possibilities of its development through modern educational technologies are analyzed. In addition, the implementation of interactive methods, innovative approaches, and effective teaching technologies aimed at enhancing the creative potential of future teachers is substantiated.

Keywords: creative thinking, creativity, pedagogical technology, innovative education, interactive methods, professional competence.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогико-технологические основы формирования навыков креативного мышления у будущих учителей. В ходе исследования анализируются сущность и содержание понятия креативного мышления, его значение в образовательном процессе, а также возможности его развития с использованием современных образовательных технологий. Кроме того, обосновывается внедрение интерактивных методов, инновационных подходов и эффективных образовательных технологий, направленных на развитие креативного потенциала будущих учителей.

Ключевые слова: креативное мышление, креативность, педагогическая технология, инновационное образование, интерактивные методы, профессиональная компетентность

KIRISH

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarmoqda. Zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, yangilikka intiluvchan hamda kreativ yondashuvga ega bo'lgan pedagog kadrlarni tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim sifatini oshirish va innovatsion ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ fikrlash shaxsning muammolarga noodatiy yondashuvi, yangicha g'oyalar yaratish qobiliyati hamda mavjud bilim va tajribalarni samarali qo'llay olish ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtiradi. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, ularning mustaqil ta'lim olishiga zamin yaratish bilan birga, kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati ortib bormoqda.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy ta'lim texnologiyalari joriy etilmoqda. Biroq ushbu jarayonning samaradorligini oshirish uchun mazkur texnologiyalarning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi va innovatsion rivojlanishi sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat chuqur nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki kreativ fikrlash, muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashish hamda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llay olish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim. Shu jihatdan, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta'lim mazmunining yangilanishi va o'quvchilarning individual ehtiyojlari ortib borishi o'qituvchidan yangicha pedagogik yondashuvlarni talab etmoqda. An'anaviy ta'lim usullari ko'plab hollarda talabalarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini bermaydi. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini ilmiy asosda tadqiq etish va takomillashtirishni taqozo etadi. Mazkur tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim jarayonida innovatsion muhitni shakllantirish hamda zamonaviy jamiyat talablariga mos raqobatbardosh o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

O'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasining pedagogik-texnologik asoslarini aniqlash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlar orqali ularning kreativ salohiyatini rivojlantirishning samarali yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

ADABIYOTLAT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika tadqiqotlarida dolzarb mavzulardan biri sifatida qaraladi. So'nggi yillarda mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki kreativ fikrlashning nazariy asoslarini aniqlash va uning pedagogik ahamiyatini o'rganish, va amaliy jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va tatbiq etishga qaratilganni guvohi bo'lmoqdamiz. Xorijlik olimlardan X.Torrance, K.Guilford, D.Sternberg kreativ fikrlashning tarkibiy elementlari, uning baholash usullari va rivojlantirish yo'llari to'g'risida tadqiqotlarlar olib borgan. Shu bilan birga, pedagogika sohasidagi ilmiy izlanishlar J. Bruner, V. Vygotsky, E. de Bono o'quv jarayonida kreativ yondashuvlar va interfaol metodlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mavjud tadqiqotlar kreativ fikrlashni rivojlantirishning turli usullarini yoritgan bo'lsada, ularni tizimli pedagogik

texnologiyaga aylantirish va oliy ta'lim jarayoniga integratsiyalash bo'yicha ilmiy ishlanmalar yetarli emas. Shu sababli, bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida qolmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasini nazariy va amaliy jihatdan tizimli o'rganishga qaratilgan. Maqolaning ilmiy mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Kreativ fikrlash tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash va uning pedagogik ahamiyatini ilmiy asoslash.

2. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni tizimli ravishda tadqiq etish.

3. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish orqali o'quvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmini aniqlash.

4. Ilmiy tadqiqot natijalari orqali bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish, pedagogik jarayonda kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali usullarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratish.

Shu tariqa, maqola bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki pedagogik amaliyotda kreativlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish va tatbiq etish imkonini beradi.

Tadqiqotning obyekti – bu bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni va uni amalga oshirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar. O'rganilayotgan obyekt sifatida pedagogik jarayonning mazmuni, usullari, metodlari va innovatsion yondashuvlari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim faoliyati qamrab olinadi.

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy– mantiqiy tahlil, kontseptual umumlashtirish va pedagogik tajribalarni solishtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini

Shakllantirish texnologiyasini aniqlashga va ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari va interfaol metodlari o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki amaliy, interfaol va innovatsion usullar orqali amalga oshirilsa, yanada samarali bo'ladi.

1. Amaliy misollar: "Brainstorming" mashg'uloti: Talabalarga pedagogik vaziyatlar berildi, ular qisqa vaqt ichida iloji boricha ko'p yechim va g'oyalarni ishlab chiqdi. Masalan, "Sinfdagi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga rag'batlantirishning yangi usullari" mavzusida 10 daqiqa davomida 15–20 innovatsion g'oya ishlab chiqildi.

2. Loyiha usuli (Project method): Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, "Yangi pedagogik texnologiya bilan dars tayyorlash" bo'yicha loyiha tayyorladilar. Natijada, har bir guruh interfaol metodlar, multimedia vositalarini qo'llagan holda dars rejasini ishlab chiqdi va sinfda amaliyotga tatbiq etdi.

3. Case study mashg'uloti: "Sinfdagi muammoli vaziyatlarni yechish" mavzusida real pedagogik vaziyatlar tahlil qilindi. Talabalar vaziyatni baholadi, muammoni aniqladi va ijodiy yechimlarni taklif qildi. Bu jarayon talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni noodatiy yondashuv bilan hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

XULOSA

1. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativ fikrlashni rivojlantirish nafaqat nazariy bilim berish orqali, balki interfaol va innovatsion pedagogik metodlar, masalan, brainstorming, case study va loyiha usullarini tizimli tatbiq etish orqali samarali amalga oshiriladi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirish jarayoni ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, muammolarga noodatiy yondashish qobiliyatini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashishga yordam beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar talabalarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashni rag'batlantiradi va ijodiy salohiyatni rivojlantiradi.

3. Shu bilan birga, maqolada tavsiya etilgan pedagogik texnologiyalar va metodlar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirish, zamonaviy innovatsion ta'lim muhitini yaratish hamda raqobatbardosh va kreativ pedagoglarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yunusova, G. N. (2018). *Razvitie kreativnogo myshleniya u budushchikh uchiteley*. Tashkent: Tashkent Pedagogical University.
2. Rakhmatova, M. S. (2020). Innovatsionnye metody formirovaniya kreativnogo myshleniya v pedagogicheskom obrazovanii. *Pedagogika i Psikhologiya Obrazovaniya*, (2), 45–52.
3. Mamedov, Sh. (2019). *Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi*. Tashkent: O'zbekiston pedagogika akademiyasi nashriyoti.
4. Abdullayeva, N. (2021). *Pedagogik innovatsiyalar orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish*. Tashkent: Oliy va o'rta maxsus ta'lim nashriyoti.
5. Qodirov, B. (2019). Oliy ta'limda kreativlikni rivojlantirish metodikasi. *Pedagogika va Psixologiya Jurnali*, (4), 33–40.
6. UNESCO. (2015). *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?* Paris: UNESCO Publishing.